



## UMRZOQ XOLBOY O‘G‘LI HAYRATIYNING IJODIY MEROSI

**Muallif:** Sodiqjon Solijonovich Tojiboyev <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** mustaqil tadqiqotchi <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20230310>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida yashab, ijod etgan Umrzoq Xolboy o‘g‘li Hayratiyning milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. Shoirning devoni hamda bayozlardan o‘rin olgan asarlari, ularning janrlari, g‘oyaviy mazmun-mohiyati bilan qisqacha, lekin lo‘nda va aniq ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Devon, bayoz, g‘azal, bayt, ruboiy, fard, xalqchil, mahorat, maqola.

Umrzoq Xolboy o‘g‘li Hayratiy (1845-1914) umrining oxirigacha tinimsiz ijod qilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari Namangan adabiy hayotining ko‘zga ko‘ringan vakili sifatida milliy uyg‘onish davri adabiyotiga munosib hissa qo‘sha olgan. Eng muhimi, u sohibi devon shoirlar safida turadi. She‘rlari avval qator bayozlardan o‘rin egallagan. Va nihoyat umrining so‘nggida “Tuhfai Hayratiy” devoniga o‘zi jamlagan.

Namanganlik ilk hayratshunos ustoz Dadamirza Orifboyev (u kishi 1972 yilda Namangan davlat universitetining “O‘zbek adabiyoti kafedrasida faoliyat yuritib, biz talabalarga dars ham berganlar) anchagina qimmatli ma‘lumotlar va shoir asarlaridan yangi qo‘lyozma topilmalarni jamlash bilan astoydil shug‘ullanganlar. Ustoz matbuotda yozganlaridek: “Namangan shahridagi Haqiqat mahallasida yashagan Hoshimjon Asqarov (1888-1972) shoir Hayratiy haqida ko‘p narsalarni bilar edi. Chunki, u kishi shoir ishtirok etgan izdihomlarda qatnashish sharafiga muyassar bo‘lgan. Xotirlashicha, Hayratiy g‘oyat shirinsuhan, mehmondo‘st, bir burda non topsa, do‘stu qadrdonlari bilan birga baham ko‘radigan ajoyib inson bo‘lgan ekan. Hoshimjon aka umrining oxirigacha Hayratiyning o‘z qo‘li bilan yozilgan bir necha she‘rlarini avaylab, e‘zozlab saqlab kelgan”.

Bir o‘tirishda Hoshimjon aka Hayratiy bilan birga suratga ham tushganligini eslagan edi. Xuddi shu suratning ikkinchi nusxasi shoirning o‘sha paytda To‘raqo‘rg‘onda yashayotgan kenja farzandi – sakson yoshli Alixon akada bo‘lgan. Afsuski, shu noyob suratning ikkala nusxasini ham topish imkoniyati bo‘lmayotir”.

Shuni ham yaxshi bilamizki, Umrzoq Hayratiy bilan Hoshimjon Asqarovning farzandlari – Alixon va Zakriyo akalar qalin do‘st sifatida qazo qadar bordi-keldini uzishmagan. Aka-ukadek yaqin munosabatni kanda qilishmagan. Eng qimmatlisi, Zakriyo akada Hayratiy o‘z dastxati bilan bitilgan “Sayohatnoma”si, “Maktub”lari, “Muhammas”lari saqlanib turgan. Ulardan Dadamirza Orifboyev bundan 50 yil muqadadm ko‘chirmalar olishga erishgan edilar. Endilikda Hayratiy ijodini o‘rganishda bular bizga noyob manba bo‘lib xizmat qilyapti. Biz o‘zimiz ham

izlanishda davom etib, to'raqo'rg'onlik keksa insonlarda saqlanib qolgan yana anchagina nazmiy bitiklarni to'plashga va o'rganishga musharraf bo'lganmiz.

Hayratiy ijodiy merosida muxammaslar alohida o'rin tutadi. Avval, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab asarlaridan bahramandligi bois ustozlarning mashhur g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Janr talabidan kelib chiqib, mantiqiy izchillikka, hamohanglikka erishish uchun tinmay izlangan. Nazm allomalarining oshiqona g'azallari yuragida uyg'otgan izchil ilhomga yuksak badiiy mahoratini uyg'un qila olgan. Zamondoshlari – Muqimiy, Furqat, Nodim, Kamiy, Nisbat, Omil g'azallariga muxammaslari ham bir talay. Ularning deyarli barchasi ishqaro afgor oshiq qalbi navolari taronasidir. Bu “Shunchalar”, “Sensiz”, “Diydoring”, “Sening”, “Ikkimiz”, “Keling”, “Netay”, “Kel ertaroq”, “Yor indamas”, “Tashlab ketib”, “Aylading”, “Ayrilib” kabi shartli ravishda radif sarlavhalaridanoq ko'rinadi.

Shoir muxammaslarining aksariyati xalqchil va hayotiy. Ularda an'anaviy ta'rifu tavsiflardan chekinish realistik ruh bag'ishlashga intilish kuchli:

*Odam o'g'li birla hayvon o'rtasida farqi bor,  
Ba'zi mullo, ba'zi omi, ba'zi guldir, ba'zi xor,  
Ba'zi davlat birla hamdam, ba'zilar mehnatga yor,  
Bandasiga imtihon etmakka berdi ixtiyor,  
Past fitratlig' yo'lini ixtiyor aylarmusiz,*

Yoki:

*Mahzun dilimni ovlabon, shirin kalom etib,  
Ag'yorlarni rashk ila korin tamom etib,  
Kunduz kelurga bo'lmasa, asr ila shom etib,  
Tol navdasidek egilib, ya'ni assalom etib,  
Oshiftalar sariga deb sado arhabo keling.*

“Ilm” muxammasi Hayratiyni chin ma'rifatparvar ekaniga shahodat beradi. Taraqqiyotning oydin yo'li ilmdaligini chuqur anglab yetgan shoir, millat bolalarini xat-savodga undaydi:

*Muborak qaddingizga xil'ati ilm,  
Yarashmish bul ajab xosiyati ilm,  
Bilur dono kishi mohiyati ilm,  
Nechun ermish mozoki lazzati ilm,  
Erur vojib kishiga hurmati ilm.*

*Ani sharti adabdur pos tutmak,  
Zararni boisi oni unutmak,  
Bo'lak tashvishlar bahridan o'tmak,  
Riyozatdin gohi xunoba yutmak,  
Bilib jona g'animat zahmati ilm.*

Dunyodagi barcha ishlar Alloh irodasi bilan ro'yobga chiqishidan umidvor shoir musaddas janridagi she'rida xalq ko'ngliga ilm-ma'rifat nurlarini yog'dirishini yolborib so'raydi:

*Hama yaxshi yomondur o'zingdan xufyai zohir,  
O'zingdin o'zgani bu ishlarga ojizligi bohir,  
Jahonning ko'zgudek oludaligidin aylagil tohir,  
Berib ilmu maorif ko'nglimizga qilib zohir,  
O'zingsan musta'on emdi biza yo rab inoyat ber,  
Muayyandin amiral musliminga fathi nusrat ber.*

Nafaqat muxammasu musaddasida, balki boshqa janrdagi katta-kichik she'rlarida ham ilmu hunar inson uchun havodek zarur ekanini turli badiiy bo'yoqlarda satrlar mag'ziga singdirib yuboradi:

*Ilm ila fazlu hunardin bexabar,  
Chun daraxti dashti qurbat besamar*

Hayratiy zamondoshlari Muqimiy, Furqat, Shavqiy, Nodim va Ibratlar bilan hamnafasu hamqadam yashagan. Hamisha ijodiy faolikka odatlangan. Hayotdagi o'zgarishlarga hech vaqt befarq qaramagan. Avlodlar istiqboli uchun astoydil tashvish chekkan. U faqat o'zi uchun emas, xalqi uchun qalam tebratgan, xalqi uchun arzirli adabiy meros qoldirgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi \O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1986, 5 sentyabr.
2. Orifboyev D. Shoir Hayrat To'raqo'rg'oniy. [\Mash'al](#). 1972. № 108.
3. Xalilbekov A. Namangan adabiy gulshani. Namangan. 2007.
4. To'xliyev B. O'zbek adabiyoti. Toshkent: - O'qituvchi. 2000.
5. Xalilbekov A. Hayratiy \Namangan haqiqati. 2004. №80.